

KOGNITIV LINGVISTIKA ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKNING YANGI YO'NALISHI SIFATIDA

Nazarov Qobilbek

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti
universiteti tayanch-doktoranti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada kognitiv tilshunoslik sohasining zamonaviy tilshunoslikda sohalari orasida tutgan o'rnini, olimlar tomonidan bu sohaning o'rganilishi yoritilgan. Shuningdek, maqolada ushbu soha doirasida o'rganiladigan konsept, freym, prototip, koseptual metafora, konseptualizatsiya, kategoriyalashtirish va shu kabi boshqa nazariyalar haqida fikr bildiriladi.

Kalit so'zlar: konseptual metafora, konsept, freym, prototip, konseptualizatsiya, kategoriyalashtirish

COGNITIVE LINGUISTICS AS A NEW DIRECTION IN MODERN LINGUISTICS

Nazarov Qobilbek

*Doctoral Student at Alisher Navoi' Tashkent State University
of Uzbek Language and Literature*

Abstract. This article highlights the place of cognitive linguistics among other fields of modern linguistics and discusses its study by scholars. Additionally, the article provides insights into theories studied within this field, such as concept, frame, prototype, conceptual metaphor, conceptualization, categorization, and other related theories.

Keywords: conceptual metaphor, concept, frame, prototype, conceptualization, categorization.

KIRISH

Kognitiv tilshunoslik sohasining dastlabki rivojlanish bosqichida Jorj Lakoff, Ronald V. Langacker va Leonard Talmy⁶ kabi olimlarning izlanishlari muhimdir. Yuqoridagi uch olim 1970-yillarning oxiri va 1980-yillarning boshlarida kognitiv tilshunoslik

⁶ Lakoff G. and Johnson M. *Metaphor We Live By*: Chicago: The University of Chicago Press, 1980. -P. 242; Lakoff G., "Women, Fire, and Dangerous Things". What categories reveal about the Mind. – Chicago and London: Chicago University Press. 1987; Langacker R.W. *Foundations of Cognitive Grammar*, Vol. 1, Theoretical Prerequisites. – Stanford University Press. 1987; Talmy L. *Toward a Cognitive Semantics*. – Cambridge, Mass.: MIT Press. 2000

sohasining fundamental asoslarini yaratishga juda katta hissa qo'shgan. Ushbu asoschilar atrofida kognitiv tilshunoslarning ikki kengayib boruvchi davri aniqlanadi. Birinchi to'liq 1980-yillarning ikkinchi yarmida paydo bo'lib, asosiy shaxslarning dastlabki hamkorlari, hamkasblari va birinchi avlod shogirdlarini o'z ichiga oladi. Ular kognitiv tilshunoslikning rivojlanishi va uning boshqa fanlararo sohalarga tarqalishida muhim rol o'ynagan. Kognitiv tilshunoslikning birinchi bosqichida AQSh va Kanada olimlari yetakchilik qilgan. Jumladan, Gilles Fauconnier, Eve Sweetser, Mark Johnson, Mark Turner, Ray Gibbs, Bill Croft, Adele Goldberg⁷ va boshqalar bu sohaning asosiy g'oyalarini shakllantirishga katta hissa qo'shgan. Shu bilan birga, Yevropa, ayniqsa, G'arbiy va Markaziy Yevropa olimlari kognitiv tilshunoslikni xalqaro miqyosda targ'ib qilishga xizmat qilgan. Masalan, Rene Dirven, John Taylor, Chris Sinha, Barbara Lewandowska-Tomaszczyk va boshqalar Yevropada ushbu sohani rivojlantirishga o'z hissalarini qo'shgan.

2. ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODLARI

Kognitiv lingvistika sohasining fundamental asoslarini yoritishda Ungerer va Schmid (2006), Dirven va Verspoor (1998), Lee (2001), Croft va Cruse (2004), Evans va Green (2006) tomonidan chop etilgan kitoblar ham muhim manba hisoblanadi⁸. Ushbu asarlar sohaning har tomonlama o'rganilishi uchun katta rol o'ynaydi.

Kognitiv tilshunoslik sohasiga salmoqli hissa qo'shgan D.U. Ashurova va M.R.Galiyeva kognitiv tilshunoslik — kognitiv fanlarning bir bo'limi bo'lib, lingvistik tanlovlar va mental jarayonlar, inson tajribasi va uning natijalari — bilimlar o'rtasidagi munosabatlarni o'rganish bilan shug'ullanishi hamda tildan bilim qatlamlarini tashkil qilish, tasvirlash, qayta ishlash, saqlash va uzatish uchun kognitiv mexanizm sifatida foydalanishini qayd etadi⁹.

3. TAHLIL NATIJALARI VA MUHOKAMA

⁷ Lakoff G. and Johnson M. *Metaphor We Live By*: Chicago: The University of Chicago Press, 1980. -P. 242; G.Lakoff and M. Turner. *More than Cool Reason: A Field Guide to Poetic Metaphor*. Chicago: University of Chicago Press, 1989. -P. 237; Fauconnier G. *Mental Spaces.Aspects of Meaning Construction in Natural Language*. – New York:Cambridge University Press. 1985; Gibbs R.W., *The Poetics of Mind*. – Cambridge: Cambridge University Press, 1994; Goldberg A. *Constructions: A Construction Grammar Approach to Argument Structure*. – Chicago: Chicago University Press, 1995.

⁸ Ungerer F. and Schmid H. *An Introduction to Cognitive Linguistics*. – Great Britain: Pearson-Longman. 2006; Dirven va Verspoor., *Cognitive Linguistics: An Introduction*. – Amsterdam: John Benjamins Publishing Company, 1998. 440 p; Lee., *Cognitive Linguistics: An Introduction*. - Cambridge University Press, 2001. 368 p; Croft and Cruse., *Cognitive Linguistics*. - Cambridge University Press, 2004. 500 p; Evans V., Green M., *Cognitive Linguistics. An Introduction*. – Edinburgh: Edinburgh University Press, 2006; Geeraerts D. and Cuyckens H., *The Oxford handbook of Cognitive Linguistics*. –Oxford university press. 2007;

⁹ Ashurova D., Galiyeva M., *Cognitive Linguistics*. – Tashkent: VneshInvestProm, 2018. – 18-p.

Kognitiv lingvistika sohasi paydo bo'lishi va taraqqiy etishi haqida yuqorida chet el va o'zbek olimlarining bir qancha qarashlari ko'rib chiqildi va shu ilmiy qarashlardan kelib chiqsak, bu sohaning paydo bo'lishi, avvalo, tilga nisbatan yondashuvlarning o'zgarishi deyish mumkin. Til va unga tegishli birliklar o'rganilishida ong, tafakkur, inson ruhiy holati katta rol o'ynashi kognitiv lingvistikaning tadqiq manbayi hisoblanadi. Bu sohani yaxlit holda tasavvur qilish uchun uni tashkil etuvchi bir qancha tushuncha va terminlarning mohiyatini anglash lozim. Kognitiv tilshunoslik tadqiqotlarining sohasi til va tafakkur o'rtasidagi munosabatlar, kognitiv jarayonlarga bog'liq lingvistik ahamiyat kasb etuvchi quyidagi keng qamrovli masalalarini o'z ichiga oladi:

- konseptual ma'no nazariyasi;
- konsept tushunchasi va uning turlari;
- konseptualizatsiya va kategoriyalash muammolari;
- bilim tuzilmalari va ularning turlari;
- freym semantikasi;
- prototip nazariyasi;
- grammatik kategoriyalarning kognitiv yondashuvi;
- konseptual metafora nazariyasi.

Sanab o'tilgan qismlar sohaning naqadar keng qamrovli ekanligini ko'rsatadi va dunyo miqyosida bu muammolarning har biri yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Kognitiv tilshunoslikning yuqorida sanab o'tilgan masalalari bo'yicha ko'plab olimlar turli tadqiqotlar olib borgan. Quyida ushbu masalalarga yuzasidan tadqiqot olib borgan taniqli olimlar va ularning izlanishlariga to'xtalamiz.

1. *Konseptual ma'no va konseptual metafora nazariyasi* bo'yicha J.Lakoff, M.Jonson, Z. Kövecses va R. Langackerlarning izlanishlari ahamiyatga molik. Dastlab George Lakoff va Mark Johnson izlanishlariga e'tibor qaratsak, ular konseptual metafora nazariyasini (Conceptual Metaphor Theory) rivojlantirgan asosiy olimlar sifatida tanilgan. Ushbu olimlar bu nazariyani inson tafakkuri, tili va madaniyati o'rtasidagi chuqur bog'liqlikni tushuntirish uchun ishlab chiqqanlar. Lakoff va Johnson fikricha, metaforalar faqat badiiy yoki estetik vosita emas, balki insonning tafakkurini tashkil etuvchi asosiy mexanizmlardan biridir. Metaforalar orqali inson abstrakt tushunchalarni konkret tajribalarga asoslab tushunadi¹⁰. Bitta kognitiv domenni (sohani) boshqasiga qiyoslab tushuntirish jarayonini olimlar *konseptual metafora* nomi bilan ataydi va *konseptual metaforalarning* inson tajribasiga, madaniy qadriyatlarga albatta til

¹⁰ Lakoff G. and Johnson M. *Metaphor We Live By*: Chicago: The University of Chicago Press, 1980. -P. 242;

hodislariga bog'liq holda paydo bo'lishini qayd etadi. Lakoff va Johnsonning konseptual metafora nazariyasi inson tafakkuri va tili o'rtasidagi murakkab bog'liqlikni tushuntiradi. Ular metaforalarni nafaqat til, balki inson dunyoqarashi va tajribasini shakllantiruvchi kognitiv mexanizmlar sifatida ko'rib chiqqan.

R. Langackerning konseptual ma'no nazariyasi haqida so'z yuritgan asarlaridan biri uning asosiy nazariy ishi hisoblangan "Foundations of Cognitive Grammar" (1987, 1991) kitobidir. Ushbu asarda Langacker konseptual ma'no nazariyasini kognitiv grammatika doirasida rivojlantiradi¹¹. Shuningdek, olim ushbu izlanishlari doirasida konseptual metafora haqida ham ilmiy qarashlarini bayon etgan. Langacker metaforaning inson tafakkuridagi asosiy jarayon ekanligini ta'kidlaydi. U metaforani til orqali namoyon bo'ladigan konseptual tizimning bir qismi sifatida ko'rib chiqadi. Metaforalar orqali insonlar bir domenning (masalan, jismoniy dunyo) tushunchalarini boshqa domenlarga (masalan, abstrakt g'oyalar) o'tkazadi. Bu jihatdan J.Lakoff va M.Jonson hamda R.Langacker *konseptual metafora* nazariya haqidagi fikrlari bir-biriga yaqin.

Metafora hodisasiga chuqur yondashgan Z. Kövecses konseptual metafora nazariyasini tilning ijtimoiy va madaniy kontekstlarda qanday ishlashini tahlil qilishda qo'llagan. Unga ko'ra, metaforalar nafaqat tilning badiiy yoki estetik jihatlari, balki insonlarning o'ylash va tushunish jarayonlari bilan chambarchas bog'liqdir. Kövecses fikriga ko'ra, *konseptual metaforalar* — bu insonlarning dunyoni tushunishi va tasavvur qilishining asosiy vositasidir. Metafora nafaqat tildagi badiiy element bo'lib qolmay, balki inson tafakkurining strukturasini tashkil etadi. Insonlar abstrakt tushunchalarni va murakkab voqealarni osonroq tushunish uchun biror konkret tushuncha yoki tasavvurga asoslangan metaforalardan foydalanadilar¹².

2. *Konsept* atamasi kognitiv lingvistikaning asosiy tushunchalaridan biri hisoblanadi. Dastlab *konsept* bo'yicha chuqur izlanish olib borgan va bu tushunchaning asosiy nazariyasini ishlab chiqqan olimlar J.Lakoff va M.Jonson tomonidan berilgan ta'rifga e'tibor qaratish lozim. Ularning fikricha, bizning fikrimizni boshqaruvchi konseptlar faqat intellektga tegishli masala emas. Ular bizning kundalik faoliyatimizni, eng oddiy detallargacha boshqaradi. Konseptlar bizning idrokimizni, dunyoda qanday harakat qilishimizni va boshqa odamlar bilan qanday munosabatda bo'lishimizni shakllantiradi¹³. Demak, *konsept* faqatgina inson intellektiga tegishli emas, balki atrofdagi odamlar bilan kommunikatsiya o'rnatish, kundalik faoliyatimiz konseptlar orqali shakllanadi. J.Lakoff va M.Jonson *konsept* tushunchasini metaforik holatlar bilan

¹¹ Langacker R.W. Foundations of Cognitive Grammar, Vol. 1, Theoretical Prerequisites. – Stanford University Press. 1987. 515 p.

¹² Z. Kövecses. Metaphor: a practical Introduction. – Oxford University Press, 2002. 303p.

¹³ Lakoff G. and Johnson M. Metaphor We Live By: Chicago: The University of Chicago Press, 1980. 3-p;

bog'lagan holda o'rganadi va turli konseptlarning paydo bo'lishida metafora katta rol o'ynashini qayd etadi. Tilshunos Sh.Safarov *konseptni mental tuzilma* deb ataydi va uning lisoniy belgiga aylanishini bir nechta bosqichlar orqali tushuntiradi. *Konsept* shakllanishining birinchi nuqtasi voqelik bo'lagi (predmet) haqidagi tasavvur – obrazning yuzaga kelishi bo'lsa, ikkinchi muhim boshqich voqelikning tafakkurdagi umumlashgan in'ikosi – obrazning mantiqiy “qayta ishlanishi” natijasida hosil bo'lgan konsept lisoniy “libos” olishidan oldin ushbu “libos”ning tasavvurdagi aksi – modeli yuzaga kelishidir¹⁴. Shuningdek, *konsept* tushunchasi bo'yicha polshalik olim Anna Wierzbicka ham izlanishlar olib borgan. Wierzbicka o'zining Natural Semantic Metalanguage (NSM) nazariyasi bilan mashhur bo'lib, bu nazariya orqali konsept tushunchasi va uning semantik asoslari haqida ko'plab fikrlar bildirgan. U konseptlarni tahlil qilishda madaniyatlararo qiyosiy yondashuvni qo'llaydi va uning ishlari, xususan, NSM nazariyasi, tilning universal va madaniy xususiyatlarini tushunishda muhim manba hisoblanadi. Shu bilan birga, u konseptlarni o'rganishda semantik va madaniy jihatlarga alohida urg'u beradi¹⁵. Yuqoridagi olimlardan tashqari *konsept* tushunchasi o'rganilishi bo'yicha E.Roshning prototip nazariyasi orqali konseptlarning markaziy va periferik elementlarini ajratish haqidagi va Y.Stepanovning *konsept* tushunchasini *universal*, *milliy-madaniy* va *individual* turlarga ajratish haqidagi nazariyalari ham bu tushunchaning mohiyatini ochib berishga xizmat qilgan.

3. Kognitiv tilshunoslikda *konseptualizatsiya* va *kategoriyalash* tushunchalari ham chuqur o'rganilgan. *Konseptualizatsiya* — bu inson ongida atrof-muhitdagi obyektlar, hodisalar, g'oyalar yoki tushunchalarning mental modellar orqali shakllanish jarayonidir. Bu jarayon insonning dunyoni qanday idrok qilishini, bilim va tajribalarini qanday tizimlashtirishini aks ettiradi. *Konseptualizatsiya* til bilan chambarchas bog'liq bo'lib, til orqali insonlar o'z dunyoqarashini ifodalaydi. *Kategoriyalash* — bu konseptualizatsiya jarayonining bir qismi bo'lib, obyektlar yoki hodisalarni ularning o'xshashlik va farqlariga asoslanib muayyan guruhlariga ajratish jarayoni hisoblanadi. Bu jarayon insonning dunyoni tushunish, undagi tushunchalarni tartiblashtirish qobiliyatini shakllantiradi. *Konseptualizatsiya* va *kategoriyalash* muammolari L.Wittgenstein, E.Rosch, Ch. Fillmore kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

L.Wittgenstein *konseptualizatsiya* va *kategoriyalash* bilan bog'liq o'z fikrlarini asosan “Philosophical Investigations” (1953) asarida bayon qilgan¹⁶. Ushbu asarida u til, tushunchalar va ularning qo'llanilishiga oid fundamental savollarga javob berishga

¹⁴ Safarov Sh., Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: “Sangzor” nashriyoti, 2006. 21-23-b.

¹⁵ Wierzbicka, A. *Semantic Primitives*. - Frankfurt: Athenäum, 1972.

¹⁶ L.Wittgenstein., *Philosophical Investigations* translated by G.E.M. Anscombe – Basil Blackwell, 1958. 250 p.

harakat qiladi. Wittgenstein kategoriyalash haqida gapirar ekan, an'anaviy qat'iy ta'riflar (keskin chegaralar) bilan cheklanishga qarshi chiqadi. Unga ko'ra, bir kategoriyaga mansub obyektlar o'zaro majburiy umumiy xususiyatlarga ega emas, balki ular "oilaviy o'xshashlik" (family resemblance) bilan bog'liq bo'ladi. U kategoriya va tushunchalarning qat'iy chegaralarga ega emasligini, balki ular insonlar tomonidan amaliy foydalanish orqali aniqlanishini ta'kidlaydi. Bu yondashuv konseptualizatsiya va kategoriyalashning dinamik va kontekstual tabiatini ochib beradi.

E. Rosch *kategoriyalash* muammosi yuzasidan chuqur tadqiqotlar olib borgan va uning tadqiqotlari kognitiv fanlar, psixologiya hamda tilshunoslik uchun katta ahamiyatga ega. Uning fikrlari asosan "prototip nazariyasi" bilan bog'liq bo'lib, bu nazariya kategoriyalarning qanday shakllanishini va inson ongida qanday tasniflanishini tushuntiradi. U "Cognitive Representations of Semantic Categories" (1975) nomli maqolasida kategoriyalarni shakllantirish va prototiplar haqida o'z fikrlarini bayon qilgan¹⁷. Shuningdek, "Principles of Categorization" (1978) asarida u kategoriyalash tamoyillari va insonning konseptualizatsiya qilish jarayonini tushuntirgan¹⁸. Rosch kategoriyalarni ierarxik tuzilma orqali tushuntiradi. Bu tuzilma uch darajadan iborat:

- eng umumiy kategoriya (superordinate level)(masalan, transport vositalari);
- eng ko'p ishlatiladigan va intuitiv daraja (basic level)(masalan, mashina);
- aniqroq kategoriya (subordinate level) (masalan, sport mashinasi)¹⁹.

Inson odatda eng ko'p ishlatiladigan va intuitiv darajani afzal ko'radi, chunki u ong uchun eng qulay va oson anglashiladigan darajadir.

Roschning fikricha, kategoriyalash insonning dunyoni idrok qilish va ma'lumotni qayta ishlash usulidir. Bu jarayon sezgi organlaridan kelib chiqqan ma'lumotlar asosida shakllanadi va mantiqiy qoidalarga emas, balki insonning ongidagi umumiy tajribalarga tayanadi.

Konseptualizatsiya va kategoriyalashtirish Ch.Fillmore tomonidan ham tadqiq etilgan. U *konseptualizatsiya va kategoriyalash*ni freym semantikasi asosida tushuntiradi. Unga ko'ra, inson bilimlari va tajribalari ma'lum *freym*lar orqali tashkil etiladi va til bu *freym*lar yordamida ma'no shakllantiradi. Fillmorening ushbu fikrlari asosan "Frame Semantics" (1976) va "Scenes-and-Frames Semantics" (1977) asarlarida bayon etilgan²⁰.

¹⁷ Rosch E., Cognitive Representations of Semantic Categories. – Journal of Experimental Psychology:General. 1975, Vol.104, No 3, 192-233-p.

¹⁸ Rosch, Eleanor and Lloyd, Barbara B. (eds), *Cognition and categorization*. - Hillsdale, NJ: Lawrence Erlbaum, 1978. 27-48

¹⁹ Rosch E., ko'rsatilgan asar. 29-bet.

²⁰ Fillmore Ch. Frame Semantics. Linguistics in the Morning Calm. – Seoul: Hanshin Publishing Company, 1982. 111-137 p.

Freym tushunchasi kognitiv tilshunoslik va semantika sohalarida muhim nazariy asos hisoblanadi.

4. *Freym* tushunchasining nazariy asoslari Fillmore tomonidan ishlab chiqilgan va bu tushuncha ustida M.Minsky, L.Talmy kabi olimlar ham tadqiqot olib borgan. L.Talmy *freym* tushunchasini kognitiv semantika doirasida o'rganib, uni til va ma'no o'rtasidagi aloqani tushuntirishda qo'llaydi. U asosan kognitiv tilshunoslik va tilning konseptual tuzilishi masalalariga qaratilgan tadqiqotlar olib borgan. Talmyning fikricha, *freym* tushunchasi inson ongining til orqali dunyoni qanday idrok qilishini, konseptualizatsiya qilishini va kategoriyalashini anglashda muhim ahamiyatga ega²¹. M. Minsky *freym* tushunchasini kognitiv fanlar va sun'iy intellekt doirasida rivojlantirgan olimlardan biridir. U *freym*ni inson ongida dunyoni tushunish, idrok qilish va ma'lumotni qayta ishlash jarayonlarini modellashtiruvchi tushuncha sifatida ilgari surgan. Minskiy *freym*ni inson xotirasida bilimni tashkil qilish va foydalanish vositasi sifatida ta'riflagan. Uning fikricha, *freym*lar kontekstga moslashadigan, atributlar va ular o'rtasidagi bog'lanishlarni tartibga soluvchi tizimdir. Bu g'oyalar "A Framework for Representing Knowledge" (1974) maqolasida asosli ravishda bayon qilingan bo'lib, u kognitiv fanlar va sun'iy intellekt tadqiqotlari uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi²². Demak, *freym* tushunchasi chuqur o'rganilishi hozirgi kunda rivojlanib borayotgan sun'iy intellekt sohasidagi tadqiqotlar uchun asos vazifasini o'taydi.

5. *Prototip nazariyasi* — bu tilshunoslik va kognitiv psixologiyada kategoriyalarning qanday tashkil topishi va qanday ishlashi haqida tushunchadir. Ushbu nazariyaga ko'ra, kategoriyalar faqat aniq chegaralarga ega bo'lgan yoki qat'iy ta'riflangan obyektlar yoki tushunchalardan iborat bo'lmaydi. Aksincha, ular *prototip* deb ataladigan eng yaxshi yoki eng tipik namunalar atrofida tashkil topadi. Bu nazariyaning shakllanishi ham bir qancha olimlarning ilmiy izlanishlari bilan bog'liq. E. Roschning fikriga ko'ra, kategoriyalar faqat aniq va qat'iy ta'riflangan obyektlar yoki tushunchalardan iborat bo'lmaydi. Aksincha, kategoriyalar o'zlarining prototiplari atrofida tashkil topadi. *Prototip* esa, kategoriya ichidagi eng tipik yoki eng ko'p uchraydigan obyekt yoki tushuncha bo'lib, uni kategoriya a'zolari tasavvur qilganda, birinchi bo'lib eslab qoladilar²³.

Lakoff ham Roschning fikriga qo'shilgan holda, kategoriyalar faqat qat'iy chegaralar bilan emas, balki prototiplar asosida shakllanishini qayd etadi. Uning fikricha, kategoriyalarni tashkil qiluvchi elementlar prototipga nisbatan turli darajada tipiklikka

²¹ Talmy L. Toward a Cognitive Semantics.- Cambridge: MIT Press, 2000. 565 p.

²² M.Minskiy., A Framework for Representing Knowledge. – MIT-AI Laboratory Memo 306, 1974. 76 p.

²³ Rosch, Eleanor and Lloyd, Barbara B. (eds), *Cognition and categorization*. - Hillsdale, NJ: Lawrence Erlbaum, 1978. 27-48

ega bo'ladi²⁴. Bu, tilshunoslikda kategoriya tuzilmalarini tushunishda yangi yondashuvni taqdim etdi.

Fikrlarni umumiyashtirsak, *prototip nazariyasi* kategoriyalarning shakllanishini qat'iy chegaralar bilan emas, balki tipiklik darajasi asosida tushuntiradi. Har bir kategoriya o'z prototipi orqali anglanadi va kategoriya ichidagi elementlar prototipga yaqinligi yoki undan uzoqligi bilan farqlanadi. Bu nazariya kognitiv tilshunoslik va psixologiyada kategoriyalash va ma'noni anglash jarayonlarini tushuntirishda muhim rol o'ynaydi.

Kognitiv tilshunoslik zamonaviy tilshunoslikda yangi paradigma sifatida shakllangan bo'lib, u tildan inson tafakkuri va dunyoqarashini o'rganishda asosiy vosita sifatida foydalanadi. Ushbu yo'nalish an'anaviy lingvistika chegaralarini kengaytirib, til va tafakkur o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tahlil qilishga xizmat qildi. Kognitiv tilshunoslik tilni faqat kommunikativ vosita sifatida emas, balki inson bilimi va dunyoni tushunish jarayonini ifodalovchi vosita sifatida talqin qiladi. Bu yo'nalishda tilning semantik, pragmatik va psixologik jihatlari chuqur o'rganiladi. Kognitiv tilshunoslikning taraqqiy etishi tilni kognitiv aspektda o'rganishni taqozo qildi. Ushbu yondashuv inson tafakkurining universal va madaniy jihatlari aniqlash, til va dunyoqarash o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ochib berish imkonini beradi. Shuningdek, kognitiv tilshunoslik turli tillar va madaniyatlarni solishtirish uchun samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, kognitiv tilshunoslik zamonaviy fanlararo tadqiqotlar uchun keng imkoniyatlar yaratadi. U psixologiya, antropologiya, madaniyatshunoslik, sun'iy intellekt kabi sohalar bilan integratsiyalashib, tilning ijtimoiy va kognitiv funksiyalarini chuqurroq anglashga xizmat qiladi. Bu sohaning istiqbollari haqida gapirsak, kognitiv tilshunoslik nafaqat nazariy muammolarni yechishda, balki amaliy sohalarda (masalan, ta'lim, tarjimashunoslik, til o'rganish va sun'iy intellektni rivojlantirishda) ham keng qo'llaniladi.

4. XULOSA

Xulosa qilib aytganda, kognitiv lingvistika zamonaviy tilshunoslikning yangi yo'nalishi sifatida dunyo va o'zbek olimlari tomonidan yirik planda tadqiq qilindi va hali bu sohada o'z yechimi kutayotgan tadqiqotlar ham amalga oshirilishi lozim. Bu sohaning taraqqiyoti hozirda rivojlanib borayotgan sun'iy intellekt sohasining ham istiqboliga hissa qo'shadi. Shuningdek, ushbu yo'nalish tildan insonning ong va tafakkurini anglash uchun vosita sifatida foydalanish g'oyasini ilgari suradi va tilshunoslikni yangi bosqichga olib chiqadi. Shu sababli, kognitiv tilshunoslikni zamonaviy lingvistikaning eng muhim va istiqbolli yo'nalishlaridan biri sifatida baholash mumkin.

²⁴ Lakoff G., "Women, Fire, and Dangerous Things". What categories reveal about the Mind. – Chicago: Chicago University Press. 1987

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Lakoff G. and Johnson M. Metaphor We Live By: Chicago: The University of Chicago Press, 1980. -P. 242;
2. Lakoff G., “Women, Fire, and Dangerous Things”. What categories reveal about the Mind. – Chicago and London: Chicago University Press. 1987;
3. Langcaker R.W. Foundations of Cognitive Grammar, Vol. 1, Theoretical Prerequisites. – Standford University Press. 1987;
4. Talmy L. Toward a Cognitive Semantics. – Cambridge, Mass.: MIT Press. 2000
5. G.Lakoff and M. Turner. More than Cool Reason: A Field Guide to Poetic Metaphor. Chicago: University of Chicago Press, 1989. -P. 237;
6. Fauconnier G. Mental Spaces.Aspects of Meaning Construction in Natural Language. – New York:Cambridge University Press. 1985;
7. Gibbs R.W., The Poetics of Mind. – Cambridge: Cambridge University Press, 1994;
8. Goldberg A. Constructions: A Construction Grammar Approach to Argument Structure. – Chicago: Chicago University Press, 1995.
9. Ungerer F. and Schmid H. An Introduction to Cognitive Linguistics. – Great Britain: Pearson-Longman. 2006;
10. Dirven va Verspoor., Cognitive Linguistics: An Introduction. – Amsterdam: John Benjamins Publishing Company, 1998. 440 p;
11. Lee., Cognitive Linguistics: An Introduction. - Cambridge University Press, 2001. 368 p;
12. Croft and Cruse., Cognitive Linguistics. - Cambridge University Press, 2004. 500 p;
13. Evans V., Green M., Cognitive Linguistics. An Introduction. – Edinburgh: Edinburgh University Press, 2006;
14. Geeraerts D. and Cuyckens H., The Oxford handbook of Cognitive Linguistics. – Oxford university press. 2007;
15. Ashurova D., Galiyeva M., Cognitive Linguistics. –Tashkent: VneshInvestProm, 2018.– 18-p
16. Z. Kövecses. Metaphor: a practical Introduction. – Oxford University Press, 2002. 303p.
17. Safarov Sh., Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: “Sangzor” nashriyoti, 2006. 21-23-b.
18. Wierzbicka., A.Semantic Primitives. - Frankfurt: Athenäum, 1972.
19. L.Wittgenstein., Philosophical Investigations translated by G.E.M. Anscombe – Basil Blackwell, 1958. 250 p.

20. Rosch E., Cognitive Representations of Semantic Categories. – Journal of Experimental Psychology:General. 1975, Vol.104, No 3, 192-233-p.

21. Rosch, Eleanor and Lloyd, Barbara B. (eds), Cognition and categorization. - Hillsdale, NJ: Lawrence Erlbaum, 1978. 27-48

22. Fillmore Ch. Frame Semantics. Linguistics in the Morning Calm. – Seoul: Hanshin Publishing Company, 1982. 111-137 p.

23. M.Minskiy., A Framework for Representing Knowledge. – MIT-AI Laboratory Memo 306, 1974. 76 p.

